

ILK O‘SPIRINLAR KASB TANLASHIDA HAVAS TA‘SIRINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI

*Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika-psixologiya kafedrası doktorantii
Muzaffarova Gulnoza Muzaffar qizi
Muzaffarova-93@mail.ru*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19417539>

Kasb tanlash inson hayotidagi eng muhim qarorlardan biri bo‘lib, uning kelajakdagi hayot tarzi, kasbiy muvaffaqiyati va shaxsiy farovonligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Bugungi kunda jamiyatning dinamik rivojlanishi, mehnat bozorining o‘zgaruvchanligi va kasblarning diversifikatsiyasi yoshlarning ongli ravishda kasb tanlash jarayoniga tayyorgarlik ko‘rishini talab etadi. Shu sababli, o‘quvchilarning kasb tanlash jarayonini chuqur o‘rganish, unga ta‘sir etuvchi ijtimoiy va psixologik omillarni aniqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Kasb tanlash jarayoni shaxsning qiziqishlari, qobiliyatlari va qadriyatlarini bilan bog‘liq bo‘lishi bilan birga, uning oilasi, ta‘lim muassasalari va jamiyatning turli ta‘sir doiralari tomonidan ham shakllanadi. Ayniqsa, o‘quvchilarning ijtimoiy muhitdagi o‘rni, ularning shaxsiy motivatsiyasi va kelajakdagi maqsadlari bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, kasbiy yo‘naltirish jarayonida psixologik yondashuvlar va pedagogik metodlarni qo‘llash yoshlarning kasb tanlashiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Mazkur maqolada o‘quvchilarda kasb tanlash jarayonining ijtimoiy-psixologik jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, oila, ta‘lim tizimi va jamiyat omillarining kasb tanlashga ta‘siri, shaxsiy xususiyatlar va qiziqishlarning kasbiy qaror qabul qilishdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari asosida o‘quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga yo‘naltirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar beriladi. Shuningdek o‘quvchilarning kasb tanlash jarayoniga ta‘sir etuvchi ijtimoiy va psixologik omillarni tahlil qilish hamda ularni ongli ravishda kasb tanlashga yo‘naltirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

Vazifasi nuqtai-nazaridan shuni aytish mumkinki:

1. O‘quvchilarning kasb tanlash jarayonini o‘rganish va unga ta‘sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash.
2. Kasb tanlashda oila, jamiyat va ta‘lim muassasalarining o‘rni va ahamiyatini tahlil qilish.
3. Shaxsiy xususiyatlar, qobiliyat va qiziqishlarning kasbiy qaror qabul qilishdagi ta‘sirini o‘rganish.
4. Kasbiy yo‘naltirish jarayonida psixologik maslahat va pedagogik yondashuvlarning samaradorligini aniqlash.
5. O‘quvchilarning ongli ravishda kasb tanlashlariga ko‘maklashuvchi ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish. Bugungi kunda o‘quvchilarda kasb tanlash masalasi juda dolzarb jihatidan xarakterli. Zamonaviy jamiyatda kasb tanlash faqatgina shaxsiy qiziqishlar bilan bog‘liq bo‘lmay, balki mehnat bozoridagi ehtiyojlar, iqtisodiy omillar va ijtimoiy ta‘sirlar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Bugungi kunda yangi kasblarning paydo bo‘lishi, mehnat bozorining o‘zgarishi va raqobatning ortishi yoshlarni ongli ravishda kasb tanlashga undaydi. Shu sababli, o‘quvchilarga kasb tanlash jarayonida yordam berish, ularni to‘g‘ri yo‘naltirish va psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, yoshlarning kasbiy yo‘nalishini to‘g‘ri tanlashlari nafaqat ularning kelajakdagi muvaffaqiyati va ijtimoiy farovonligiga, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Shu bois, kasbiy yo‘naltirish jarayonida ijtimoiy-psixologik jihatlarni o‘rganish va samarali yondashuvlarni ishlab

chiqish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarning kasb tanlash jarayoni va unga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar masalasi ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xorijiy olimlardan J.L.Holland Amerikalik psixolog, kasb tanlash bo‘yicha mashhur Holland nazariyasi muallifi. U kasb tanlashning shaxsiy xususiyatlar bilan bog‘liqligini ta’kidlagan va insonlarni oltita asosiy kasbiy tipga ajratgan: Realistik, Investigativ, Badiiy, Ijtimoiy, Tadbirkorlik va An’anaviy. S.Donald kasbiy rivojlanish nazariyasini ishlab chiqqan. Uning fikriga ko‘ra, kasb tanlash dinamik jarayon bo‘lib, insonning shaxsiy o‘sishi va hayotiy tajribasiga bog‘liq. E.Ginzberg kasbiy rivojlanish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshishini ta’kidlagan va yoshlarning kasb tanlashi uzoq muddatli jarayon ekanligini isbotlagan. F.Parsons kasbiy yo‘naltirishning asoschisi sifatida tanilgan. Uning Trait and Factor yondashuvi shaxsiy qobiliyat, qiziqish va kasbiy talablar mosligini tahlil qilishga asoslangan. A.Bandura ijtimoiy ta’lim nazariyasi doirasida kasb tanlashda ijtimoiy ta’sir va modellashtirishning ahamiyatini o‘rgangan. U o‘quvchilarning kasbiy qaror qabul qilishiga oila, o‘qituvchilar va jamiyatning ta’siri muhim ekanligini ta’kidlagan. O‘zbek va rus olimlari tadqiqotlaridan esa S.A.Drujinina kasb tanlash psixologiyasini o‘rganib, shaxsiy xususiyatlarning kasbiy muvaffaqiyatga ta’sirini tadqiq qilgan. Ye.A.Klimov kasb psixologiyasini o‘rganib, kasblarni inson faoliyati turiga qarab tasniflagan (Inson–tabiat, Inson–texnika, Inson–inson, Inson–belgilar tizimi, Inson–badiiy obraz). G.S.Abramova yoshlarning kasbiy yo‘nalishini shakllantirish bo‘yicha psixologik metodlarni ishlab chiqqan. A.A.Rean “Motivatsiya va kasbiy qiziqishlarning shakllanishi” bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. O‘zbekistonlik olimlar A. Abduqodirov, B.Parpiyev, M.Rahimov va boshqalar O‘zbekistonda yoshlarning kasb tanlash jarayonida psixologik omillar va pedagogik metodlarni o‘rganib, kasbiy yo‘naltirish bo‘yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqqanlar. Hozirgi kunda o‘quvchilarning kasb tanlash jarayonini qo‘llab-quvvatlash maqsadida turli amaliy psixologik tadbirlar, dasturlar va metodlar ishlab chiqilmoqda. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda kasb tanlash jarayoni ilmiy va amaliy yondashuv asosida takomillashib bormoqda. Psixologlar, pedagoglar, ta’lim muassasalari va raqamli texnologiyalar yordamida o‘quvchilarga to‘g‘ri kasb tanlashda ko‘mak berish borasida samarali ishlar olib borilmoqda. Bu jarayon o‘quvchilarning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatini ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Holland, J. L. (1997). Making Vocational Choices: A Theory of Vocational Personalities and Work Environments. Psychological Assessment Resources.
2. Klimov, E. A. (1996). Psixologiya professional'nogo samoopredeleniya. M.: Akademiya.
3. Super, D. E. (1980). A Life-Span, Life-Space Approach to Career Development. Journal of Vocational Behavior, 16(3), 282-298.